MALAKA OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILISHI KUTILAYOTGAN ISLOHOTLAR

To‘raev Farxod Qo‘ysinovich
Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 2-son kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Bugungi kunda butun jahonda “umri davomida ta’lim olish tamoyili” asosida ta’lim berish dasturi, kattalarni o‘qitish malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash ta’lim strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Mana shunday jarayonni tashkil qilishni biz ushbu maqolamiz orqali tahlil qilib berishga harakat qildik.
Kalit so‘zlar: malaka oshirish, malaka talablari, metodika, professional ta’lim, masofaviy ta’lim.
Аннотация:Сегодня во всем мире образовательная программа, основанная на «принципе обучения на протяжении всей жизни», является одним из основных направлений образовательной стратегии совершенствования или переподготовки взрослых. Мы попытались проанализировать организацию такого процесса посредством этой статьи.
Ключевые слова: обучение, квалификационные требования, методика, профессиональное образование, дистанционное обучение.
Annotation: Today, throughout the world, an educational program based on the "principle of lifelong learning" is one of the main directions of the educational strategy for the improvement or retraining of adults. We tried to analyze the organization of such a process through this article.
Key words: training, qualification requirements, methodology, vocational education, distance learning.

Butun dunyo mamlakatlari kabi respublikamizda ham pedagog-o‘qituvchilarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalasi o‘ta dolzarb muammo hisoblanadi. Respublikamizda bugungi kunda 704 ga yaqin professional ta’lim muassasalari (kasb-hunar maktabi, kollej va texnikum) faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir ta’lim muassasalarida kamida 1-3 nafardan o‘rta maxsus ma’lumotli kadrlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Respublikamizda ta’lim sohasida bo‘layotgan islohotlar natijasida bunday salbiy holatning oldini olishga erishilmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarga bo‘lgan hududiy ehtiyojni hisobga olgan holda sirtqi va kechki yo‘nalishlarning ochilishi fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Malaka oshirish kurslarining asosiy maqsadi – o‘quv-tarbiya jarayonini malakaviy talablarga muvofiq yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlash, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillari va zamonaviy usullari, malaka talablari, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borishdan iborat.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan har bir ta’lim oliy ta’lim muassasasida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olib bsqichma-bosqich tarzda ta’limning muqobil variantlari: sirtqi, kechki shakllari tashkil etilmoqda. Shuningdek, hududlardagi barcha pedagoglarni har 5 yilda bir marta 144 soatlik malaka oshirish jarayoniga qamrab olishning imkoniyat mavjud emasligi uchun masofaviy malaka oshirish tizimi yaratilgan.

https://wordlyknowledge.uz

Agar o‘qituvchi bugungi ijtimoiy voqea-hodisalar, Prezident asarlari, yangi usullar, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo‘lsa, unday o‘qituvchilarni masofadan malaka oshirishni tashkil etish lozimligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Masofadan o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ham o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni qo‘lga kiritadi, ham kompyuter vositalari bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini egallaydi.

Masofaviy malaka oshirish faqatgina birinchi marta an’anaviy malaka oshirish kursidan o‘tolmaganlar uchun tashkil etilmasligi kerak. Afsuski bugun shunday tizim amal qilmoqda. Bizningcha, masofaviy malaka oshirish tizimini an’anaviy kurslar uchun ham tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki masofadan malaka oshirish tizimi ham malaka oshirishning muqobil variantlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, o‘qituvchilarni masofadan malaka oshirish ta’limini keng ommalashtirish kerak.

Respublikamizda ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichi mazkur tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonini faollashtirish bilan tavsiflanadi. Ta’limni modernizatsiyalashtirishning umumiy yo‘nalishi – ta’limning tizimli va organik o‘zgarishlarni zamonaviy hayot talablariga muvofiqlashtirish, ta’limni muntazam yangilab turish madaniyati va mexanizmlarini yaratish, uning shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb istiqbolli ehtiyojlariga yo‘naltirilganligiga bog‘liq.

O‘quv reja va dasturga asosan tinglovchilar 4 ta blok doirasida malaka oshiradilar Ular:

- Professional ta’limda davlat siyosati deb nomlangan bo‘limda tinglovchiga Professional ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, Komplayens nazorati va mehnat huquqi, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida inson kapitali nomli modullar kiritilgan bo‘lib, professional ta’lim tizimiga oid davlat siyosatining strategik yo‘nalishlari ochib beriladi. Unga 24 soat ajratilgan.
- Professional ta’lim asoslari deb nomlangan bo‘limda tinglovchiga Ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘quv-me'yoriy hujjatlari, Ta’limda innovatsion yondashuv, Ta’lim sifatini ta’minlash va monitoring qilish nomli modullar kiritilgan bo‘lib, bunda ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi, pedagogik mahorat va kompetentlik, o‘quv faoliyatini boshqarish muammolari bayon etiladi. Unga 30 soat ajratilgan.
- Professional ta’limda rahbar faoliyati deb nomlangan bo‘limda Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, Ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash, Raqamli texnologiyalardan foydalanish va elektron hukumat, Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, Yoshlarga oid davlat siyosati, Jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, To‘garak ishlarini tashkil etish metodikasi, ARM va guruh rahbarlarlari faoliyatini tashkillashtirish nomli modullar kiritilgan bo‘lib, bunda ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash masalalari yechimi izlanadi. Unga 78 soat ajratilgan.
- Institut ixtiyoridagi soatlar (tanlov fan). Bunda mutaxassislik fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar, fanni o‘qitish metodikasi hamda tanlov o‘quv moduli berilgan. Unga 12 soat ajratilgan.

Malaka oshirish kursi yakunida tinglovchilar malakaviy attestatsiyadan o‘tkaziladi, ya’ni onlayn chiqish testi (bugungi kunga qadar kirish va chiqish testlari bo‘lgan va u institutning ishi hisoblangan) va malaka ishi himoyasi tashkil etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Germaniya hamda Janubiy Koreyada o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimining o‘ziga xosliklarini qiyosiy tahlil qildik. Bunda asosan internet materiallari, respublikamiz hamda xorijiy davlatlar olimlarining shu sohadagi ilmiy asarlariga tayandik. Tadqiqot natijasida to‘plangan materiallar umumlashtirilib mamlakatimizdagi o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimiga tadbiq qilish va qiyosiy tahlil qilish imkoniyati vujudga keldi.

https://wordlyknowledge.uz

Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga quyidagi takliflarni kiritamiz:

1. Professional ta’lim muassasalarida direktorlarini tayinlashda ularning kamida 5 yil direktor o‘rinbosari lavozimida ishlagan bo‘lishi kerakligiga e’tibor qaratish.
2. Professional ta’lim muassasalarida direktorlarini har 5 yilda ratatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish.
3. O‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish mexanizmini tubdan takomillashtirish, bunda noloyiq deb topilgan o‘qituvchilarni ishdan bo‘shatish.
4. Professional ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni ishga qabul qilishni tanlov asosida o‘tkazish, bunda o‘qituvchilarni ishga qabul qilish bo‘yicha alohida qabul komissiyasi tashkil etish va mazkur komissiya tavsiyasiga ko‘ra qabul qilish (komissiya raisi kamida vazirlik xodimi bo‘lishi kerak).
5. Professional ta’lim muassasalarining moliyaviy taqsimotini (bo‘ysunishini) Vazirlik tomonidan amalga oshirilishiga erishish.
6. Professional ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar malakasini ijobiy oshirganda ularning oyliklariga va toifalariga qo‘shimcha berish tizimini joriy etish (Germaniya ta’lim tizimi singari).
7. Kadrlarni maqsadli tayyorlash mexanizmini joriy etish (hududlarni hisobga olgan holda).
8. Har bir tumanda “ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi”ni tashkil etish va kadrlarni maqsadli tayyorlashga jamg‘arma mablag‘laridan unumli foydalanish.
9. Oliy ta’lim muassasasini bitirgan kadrlarning monitoringini olib borish.
10. Professional ta’lim muassasalarida ortiqcha qog‘ozbozlik hamda turli “tekshirish”larni keskin kamaytirish.

Xulosa qilib aytganda, Professional ta’lim muassasalari rahbar va o‘qituvchilarning malakasini oshirish sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish asosida Professional ta’lim tizimi xodimlarining malakasini oshirish jarayonida ularni kasbiy rivojlantirish uchun mavjud davlat talablari, o‘quv reja va dasturlarini tubdan isloh qilish, ilg‘or xorijiy tajribalar bilan milliy ta’limiy qadriyatlarimizni uyg‘unlashtirgan holda malaka oshirish ta’limi tizimiga joriy etish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz